

## MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY FAOLIYATI

Xayriyev Xayriddin Sirojiddin o‘g‘li

Toshkent Davlat Transport Universiteti

[xayriddinxayriyev10@gmail.com](mailto:xayriddinxayriyev10@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biridir. U adabiyotning turli janrlarida, jumladan, she’riyat, dramaturgiya va nasrda faoliyat yuritgan. Shayxzoda o‘zining chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmundagi asarlari bilan tanilgan. Shayxzoda o‘z ijodida milliy va insoniy qadriyatlarni targ‘ib qilgan. Uning she’rlari inson ruhiy dunyosining murakkabliklarini, hayotiy muammolarni va sevgi mavzularini aks ettiradi. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning adabiy faoliyati to‘g‘risidagi fikrlar boradi.

### LITERARY ACTIVITY OF MAKSUD SHAIKZODA

**Abstract:** Maqsud Shaikhzoda is one of the great representatives of Uzbek literature. He worked in various genres of literature, including poetry, drama and prose. Sheikhzadeh is known for his deep philosophical and social works. Sheikhzada promoted national and human values in his work. His poems reflect the complexities of the human spiritual world, life problems and themes of love. This article discusses the literary activity of Maqsud Sheikhzadeh.

### ЛИТЕРАТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАКСУДА ШАЙКЗОДЫ

**Абстрактный:** Максуд Шайхзода – один из ярких представителей узбекской литературы. Работал в различных жанрах литературы, включая поэзию, драму и прозу. Шейхзаде известен своими глубокими философскими и социальными работами. Шейхзаде в своем творчестве пропагандировал национальные и общечеловеческие ценности. В его стихах отражены сложности духовного мира человека, жизненные проблемы и темы любви. В данной статье рассматривается литературная деятельность Максуда Шейхзаде.

**Kalit so‘zlar:** dramaturgiya, asar, fojia, gazeta, jurnal, universitet, o‘qituvchi, tarjimon, taraqqiyot.

**Key words:** dramaturgy, work, tragedy, newspaper, magazine, university, teacher, translator, development.

**Ключевые слова:** драматургия, произведение, трагедия, газета, журнал, вуз, преподаватель, переводчик, развитие.

**Kirish:** Dramaturgiya sohasida ham Maqsud Shayxzoda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. “Mirzo Ulug‘bek” va “Alisher Navoiy” kabi pyesalari tarixiy shaxslar obrazlari orqali milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyalarini kuylaydi. Shayxzodaning nasriy asarlari ham adabiyotimizda munosib o‘rin egallaydi. Uning hikoyalari va qissalari jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va insoniy munosabatlarni yoritadi. Maqsud Shayxzoda ijodi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi va uning asarlari hanuzgacha o‘quvchilar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Shayxzoda o‘z asarlari orqali o‘zbek adabiyotining boyishiga va milliy madaniyatimizning rivojlanishiga katta hissa qo‘shtadi.

**Asosiy qism:** Xalqning ham bu borada yetaricha tushunchasi shakllanmagan sababli, qora tuzum boshqaruviga hech bir inkor bildirisha olmasdi Mutafakkir, jadid bobomizning bir ibratli so‘zlari bor: “Maktaba yo‘q tiynini to‘yga ming so‘mlab berar, davosi yo‘q kasalga mubtalodir bizni xalq”. Haqiqatdan ham, agar maktab ilmi yaxshilantirilsa, boshqa har qanday holatda ham xalq hech qachon manqurt bo‘lib qolmaydi. Maqsud Shayxzodaning ham boshiga kelgan bu kulfatlarning asosiy sababi, avvalo hukumron tuzum bo‘lsa, bundan tashqari xalqning ham beparvoligidir. Adibning komil shaxs bo‘lib yetishishida poytaxtimiz Toshkentning o‘rni beqiyos. Negaki, u bu yerga kelib xalqqa tanildi, obro‘-e’tiborga ega bo‘ldi. Ya’ni, Maqsud Shayxzoda yuqorida ta’kidlab o‘tgan maqsadi yo‘lidagi to‘siqlarga qoqilmadi. Adib avvalo, o‘zining mahallasodagi o‘rtta maktabda o‘qigan bo‘lsa, undan keyin Boku pedagogika oliygohida ham tahsil oldi. O‘qishi davomida boshqa talabalarga nisbatan faol va zukko bo‘lgan Shayxzoda, oliy ta’limni yuqori baholarda tamomlagan. Bu ham uning yaqin kelajakda taniqli shaxs bo‘lib tanilishining bir na’munasi edi. Shundan so‘ng uning u birinchi o‘rtta maktabda o‘qituvchi so‘ngra dorilfunundagi texnikumda ham xuddi shu sohada o‘z faoliyatini olib bordi. Mamlakatdagi aksilinqilobiy harakatlar bir qancha insonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgandek, buning iskanjasidan Maqsud Shayxzoda ham qutilib qolmadi. Adibga tegib ketgan tuzumning soviq shamoli uni Toshkentga ketishga majbur qildi, aniqrog‘i, surgun qildi. U Toshkentga kelganidan so‘ng ham o‘z faoliyati yo‘lida to‘xtab qolmadi. Ilmini ko‘tarish va zehnini yanada kuchliroq qilish maqsadida u yerda ham bir qancha ta’lim muassasalarida malakasini oshirib, bir qanchalarida ham o‘zining ish faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Yozuvchi shu davr mobaynida o‘qituvchilik faoliyati bilan cheklanib qolmay, bir qancha gazeta va jurnal nashrlarida ham ko‘zga ko‘rinib qolgan edi. Misol tariqasida shu ham ta’kidlab o‘tish kerakmi, uning nashriyotlardagi adabiy faoliyatlarida “Yosh lelinchi”, “Qizil O‘zbekiston” va boshqa bir qator gazeta va jurnallarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Biz bilamizki, qaysi adobning hayoti va ijodini o‘rganmaylik har birining adabiy faoliyati bo‘lagi sifatida gazeta va jurnallar alohida ko‘zga tashlanadi. Adibning adabiy faoliyatida yana bir muhim o‘rin tutadigan qismi bu – uning hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi o‘rnidir.

**Xulosa:** Ushbu maqola so‘ngida tepada ta’kidlab o‘tilgan jihatlar bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsam, adib hayotidagi ijodiy va adabiy faoliyatida juda ham ko‘p ishlar va

amallar bajarilgan. Unda aytib o'tganimizdek maktabdan to universitetlarga cha hamda gazeta va jurnallarning ham o'rni bor. Toshkent davlat pedagogika universitetida yozuvchi umrining oxiriga qadar dotsent vazifasida faoliyatini yuritgan. Albatta, shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, shaxs rivojlanishining ilk bosqichi maktab bo'lsa, uning sayqallanib, shakllanishida oliy ta'limning o'rni beqiyosdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maqsud Shayxzoda. "She'rlar va dostonlar." Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Usmon Azimov. "O'zbek she'riyati antologiyasi." Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
3. Ismat Ismoilov. "Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi." Toshkent: Fan, 1978.
4. O'zbek adabiyoti ensiklopediyasi. "Maqsud Shayxzoda sahifalari." Toshkent: O'zbek milliy ensiklopediyasi, 2000.

